

qanday tutish kerakligini va qanday holat yoki turmush tarziga loyiqqligini aniqlaydilar [2].

M.Rokich qadriyatlarini yo'nalishi bo'yicha **terminal** va **instrumental**ga bo'ladi.

Terminal – bu o'z-o'zidan muhim bo'lgan toifalar. Ular orasida ma'naviy kategoriyalar ham, moddiy obyektlar ham mavjud. Bularga sevgi, do'stlik, erkinlik, ijod, salomatlik, oila, martaba, qulaylik va boshqalar kiradi. Inson shu narsaga intiladi, uning atrofida uning hayotiy maqsadlari quriladi.

Instrumental - ular yakuniy natijalarga erishish vositalaridir. Ya'ni, ular o'z-o'zidan muhim emas, balki faqat hayotiy maqsadlar yo'lida vosita sifatida. Bularga

mehnatsevarlik, iroda kuchi, qat'iyatlilik, stressga chidamlilik, qiziquvchanlik, ijodkorlik kabi ijtimoiy ma'qullangan shaxsiy xususiyatlar kiradi. Odamlar ularni rivojlantirishga intilishadi, chunki ular farovon va baxtli hayotga erishishga yordam beradi [4].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, psixologiya nuqtayi nazaridan «**qadriyat**» insonning harakatlari, istaklari va yo'nalishlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tushunish uchun muhim element hisoblanadi. Jamiyat va umuman davlatning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi insonlardagi qanday manfaatlar, qarashlar va qadriyatlar ustuvorligiga bog'liq.

Adabiyotlar

1. Горькая Ж.В. Психология ценностей. –Самара: Издательство «Самарский университет». 2014.
2. Карандашев В.Н. Методика Шварца для изучения ценностей личности: концепция и методическое руководство. СПб. 2004.
3. Ключко В.Е. Закономерности психологической познавательной деятельности: проблемы ценностей и смысла в призме трансспективного анализа. // Основы ценности психологической науки и психологии ценностей / под ред. В.В.Знакова, Г.В.Залевский. –М.: Институт психологии РАН. 2008.
4. Rokeach M. The Nature of Human Values. –N-Y.: 1973.

REZYUME. Maqolada qadriyatlar tushunchasining xususiyatlari ochib berilgan. Qadriyatlar shaxs hayotining asosiy kategoriyasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shaxs vaziyatlarni qadriyatlar tizimi orqali qanday qabul qilishi va tashqi muhitga shundan kelib chiqib munosabatda bo'lishi haqidagi bilimlar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрывается характеристика понятия ценностей.Ценности рассматриваются как основная категория жизни человека.Дается знания о том, как человек воспринимает ситуации через систему ценностей и на основе этого реагирует на внешнюю среду.

SUMMARY. The article reveals the characteristics of the concept of values. Values are considered as the main category of a person's life. Knowledge is given about how a person perceives situations through the value system and reacts to the external environment based on this.

SUITSIDAL XULQ XAVFINI YUZAGA KELISHIDA DEMOGRAFIK VA GENDER MASALALARI

G.A.Qarshiboeva – *psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: suitsidal xulq, xavf namoyon bo'lishi, alkohol va narkotik moddalar, ta'sir ko'rsatish, g'ayritabiiylik, voqea-hodisalar, real baho, o'zidan qoniqmaslik.

Ключевые слова: суицидальное поведение, проявления риска, алкоголь и наркотики, экспозиция, ненормальность, события, реалистическая оценка, недовольство собой.

Key words: suicidal behavior, risk manifestations, alcohol and drugs, exposure, abnormality, events, realistic assessment, dissatisfaction with oneself.

Suitsid muammosini ilmiy o'rganishda eng avvalo, suitsidentlar yoki suitsid haqida o'ylaydigan odamlar to'g'risida ma'lumot to'plash, ularning ruhiy holati va xatti-harakatlarini kuzatish, aholi orasida alkohol va giyohvand moddalarni iste'mol qilishni kamaytirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yuzaga keladigan nizolarning yoshga bog'liq psixologik muammolarni aniqlash asosida bartaraf etish, shaxslar bilan ishlaydigan psixolog mutaxassislar faoliyatini takomillashtirish masalalariga ahamiyat berish zarurati ko'rinmoqda.

Suitsid muammosida ko'proq psixologik omillar – insonlarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlari, ularning dunyoqarashi, e'tiqodi, ular uchun hayotning mazmuni, o'z-o'zini baholash xususiyatlarini shakllantirish zarur bo'lib, o'smirlardagi suitsid muammosining bartaraf etilishi psixologik xizmat sifatini oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari varatiladi.

Shuningdek, o'smirlarning tashqi omillarga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyasi oqibatida vujudga kelgan salbiy holatlar (tez xafa bo'lish, ishonchsiz, o'zini kamsituvchi, o'ta ko'ngilchan, murosasizlik, tobelik, odamlarning fikriga bog'lanib qolish) tufavli suitsidal xulqning namoyon bo'lishi asoslanib, shaxslararo munosabatni empatik tiklash va suitsidal xavf hissi faktorlarini kamaytirish maqsadida psixoprofilaktik targ'ibot-tashviqot ishlarini mentalitet xususiyatiga ko'ra ijtimoiy-psixologik aspektda olib borish zarur hisoblanadi.

E.Dyurkgeym o'z joniga qasd qilishni shaxsiy fenomen sifatida qarab, muayyan individni uni o'rab turgan olam bilan o'zaro aloqasi deb hisoblaydi. U suitsid turlarini (egoistik, anomistik, altruistik) farqlab o'tar ekan, ularda

individualizmning nisbatan ko'proq kuzatilishini ta'kidlaydi [2:496].

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti, uni ilg'or yutuqlarining kundalik hayotimizga, odamlar turmush tarziga chuqur kirib borishi, urbanizatsiya bularning barchasi bugungi kun shaxsiga har qachongiga qaraganda ko'proq ham jismoniy, ham emotsional zo'riqishlar olishi, uzoq vaqt ruhiy siqilish, asabiylik holatida bo'lishi ularni har xil stresslarga beriluvchanligini oshirib yuboradi. Shuning uchun ham bugungi kunda erishayotgan olamshumul yutuqlarimiz bilan bir qatorda odamlar o'rtasida asabiy toliqishlik holatlarining ortishi, o'z joniga qasd qilish (suitsid) kabi noxush hodisalar ham kuzatilib turibdi [1:114].

O'zbekistonda suitsid muammosining ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilk bor ilmiy tadqiq etishni boshlagan mutaxassislar guruhi a'zolari, psixologiya fanlari doktori, professorlar M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, psixologiya fanlari nomzodi, dotsentlar S.A.Axundjanova, N.A.Sog'inov, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmanov, B.M.Umarov, F.S.Ismailova, Z.F.Kamaletdinova, tibbiyot fanlari nomzodi N.M.Xodjayeva va psixolog N.Z.Ismoilovalardan iborat edi. Ayni vaqtda ularning aksariyati fan doktorlari bo'lib, nafaqat respublikamiz, balki undan tashqarida ham ilmiy faoliyatlarini davom ettirmoqdalar [3:479].

Ma'lumki, ota-onalarning bolalarga nisbatan bo'lgan munosabati ikki asosiy xususiyat, ya'ni ota-onalik muhabbati va ijtimoiy burch nuqtayi nazaridan belgilanadi. Insonparvar jamiyatda bu xususiyatlar bir-biriga zid kelmaydi. Chunki kishini sevish unga baxt tilashdir, baxtiyorlik esa jamiyatga ko'proq foyda keltirish demakdir.

Ammo har qanday hissiyot singari ota-onalik muhabbati turli darajada, ya'ni eng yaqinlik faktini bevosita aks ettirishdan toki yengil va axloqiy e'tiqodga muvofiq tarzda chuqur mehribonlikkacha bo'ladi. Bunda kishining axloqiy e'tiqodi qanchalik yuksak bo'lsa, uning ota-onalik muhabbati shunchalik uzoqni ko'radigan va talabchan bo'ladi. Burch hissi esa bolalarda axloqiy barkamollikning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda rostgo'ylik, adolatlik bo'lmasa, oila tarbiyasi ta'sirchan va maqsadga muvofiq tarzda kechmaydi. Shuning uchun ham ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabat har doim ota-onalik muhabbati va ijtimoiy burch nuqtayi nazarida asosida amalga oshirilsa, ota-onalik muhabbati kuchayib, bolalarni yuksak axloq, ijtimoiy burch ruhida tarbiyalash imkoniyatini kengaytiradi.

O'z joniga qasd qilish xavfining omillari quyidagilar hisoblanadi:

- Ijtimoiy-demografik:
- bolalikdan otasizlik;
- oilada «matriarx» munosabatlar ta'siri (onaning kuchli ta'siri);
- e'tiborning yetishmasligi, bolalik va o'smirlikda rad etilishi;
- haddan tashqari g'amxo'rlik, «oilaning erkasi» turidagi tarbiya;
- spirtli ichimliklar muhiti oilasida tarbiyalanish;
- oilada muntazam ravishdagi urush-janjallar;
- ota-onaning ajrashib ketishi;
- ota-onasi bor bo'lgan holda bolalar uyida tarbiyalanish;
- oilada asab kasalliklari bilan og'rigan kasallarning borligi;
- oilada o'z joniga qasd qilish, suiqasd qilish yoki yaqin qarindoshlar tomonidan o'z joniga qasd qilish bilan qo'raitish holatlarining mavjudligi.

O'smirlik davri oddiy vosh davri emas, avnan shu voshdagi davr qarama-qarshiliklarga limmo-lim to'la bo'lganligi bois, ularning xatti-harakatlari ota-onalariga ko'p tashvish tug'diradi. Jahldorlik, oila va jamiatdagi jizakligi, hissiyotlarining barqaror emasligi, ota-onaning ortiqcha g'amxo'rlikiga qarshilik ko'rsatishi, uvatchanlik hamda o'zi va yaqinlariga imkoniyatdan ortiq talablar qo'yishi atrofda qilarni xavotirga soladi. Shuning uchun, o'smirlarning xatti-harakatlarini tushunish uchun, ularning kelib chiqish sabablarini tushunib yetish kerak [3:479].

Aholi o'rtasida o'tkaziladigan pedagogik-psixologik korreksiya, avvalo, oilada shaxs rivojlanishi uchun maqbul bo'lgan psixologik muhitning shakllanishiga erishish, unda

o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'zaro hamkorlik hamda hurmatga asoslangan jamoani jipslashtirish, o'smirlarda esa o'zini o'zi namoyon etish imkoniyatlarini topa olishiga sharoit yaratish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ijtimoiy foydali faoliyat yo'nalishlariga jalb etish, o'z oldiga qo'ygan maqsad, shuningdek, istiqbolli rejalarni amalga oshirish motivatsiyasini shakllantirish kabi vazifalarni qamrab oladi [3:479].

O'smirlarda suitsidal xulq xavfining yuzaga kelishida demografik jihatdan bir qancha muammolarning ta'siri mavjudligini o'tkazilgan tadqiqot natijalari ham tasdiqlab turibdi (jadvalga qarang).

O'smirlar o'rtasida suitsidal xulq xavfini yuzaga keltiradigan holatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, muammolardan biri «Ota-onani yo'qotish» holati yuqori natijani ko'rsatmoqda. Bu natijalar Paxtakor (30,0 ball), G'allaorol va Baxmal (40,0 ball), Sh.Rashidov (60,0 ball) tumanlarida va Jizzax shahrida (62,0 ball) yuqori natijani ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, bu holat o'smirlarning ichki dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ota-onani yo'qotish, ruhiy tushkunlik, hech kimga kerak bo'lmaslik, depressiv va yolg'izlik hissining yuzaga chiqishiga olib keladi.

Bu ko'rsatkichlar o'smirlar xarakterida salbiy holatlar yoki hissiyotlarning rivojlanishini tadqiqot natijalarida ko'rishimiz mumkin.

Oiladagi og'ir psixologik muhit o'smirlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir etishi tadqiqot natijalarida o'z aksini topgan. Bu holat o'smirlarda hayotga nisbatan qiziqishining yo'qolishi, kelajakka bo'lgan ishonchning pasayishi, tajovuzkorlik kabi xususiyatlarni yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi (jadvalga qarang).

O'smirlardagi suitsidal xulq xavfining oshishiga «Tarbiyaning adolatsiz uslublari, tushkunlik» holati ham sabab bo'lishi tadqiqot natijalarida ko'rinib turibdi. Bu holat Baxmal tumanida (52,0) yuqori natijani ko'rsatmoqda. Sh.Rashidov va G'allaorol tumanlari (36,0), Jizzax shahrida (30,0 ball) nisbatan past natijani ko'rsatdi. Bunday ko'rsatkich esa mazkur tumanlarda ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi-o'quvchi hamda oiladagi ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda adolatsizlikning namoyon bo'lishi, o'smirlarga nisbatan nohaqlik va shaxs sifatida past nazar bilan qarash o'smirlarda tushkunlik holatini keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Natijada o'smirlarda suitsidal xulq shakllanishiga zamin yaratiladi.

O'smirlarda suitsid xavfining demografik jihatdan prognostik jadval so'rovnoma bo'yicha tadqiqot natijalari

№	Muammo	Natijalar				
		Paxtakor tumani	Jizzax shahri	Sh.Rashidov tumani	G'allaorol tumani	Baxmal tumani
1	Ota-onani yo'qotish	30	62	60	40	40
2	Ota-onadan bittasini yo'qotish yoki oilaning ajralishi	36	58	60	36	36
3	Oilada og'ir psixologik muhit	28	42	40	44	32
4	O'smirlar jamoasida yakkalik	16	26	28	32	48
5	Tarbiyaning adolatsiz uslublari, tushkunlik	20	30	36	36	52
6	Og'ir somatik kasalliklar, nogironlik	9	14	11	10	8
7	Sevimli insonidan tayanch yo'qligi	27	24	27	21	48
8	O'qishdagi omad-sizliklar, maktabdagi omadsizliklar	36	30	39	42	45
9	Shaxsga urg'u berish	20	24	26	23	24
10	Alkogol va narkotik iste'moli	14	18	20	20	32
11	Nazoratning buzilishi, impulsivlik	16	26	20	20	30
12	O'ziga past baho berish	7	9	7	16	21
13	Og'ir kechuvchi pubertat	5	6	4	12	11
14	Passivlik, jur'atsizlik, tobelik	11	14	11	18	18

O'smirlarda suitsidal xulqning xavfi borasida o'tkazilgan so'rovnomaning «O'smirlar jamoasida yakkalanish» muammosi bo'yicha olingan natijalar tahlilida Jizzax shahri, Sh.Rashidov, G'allaorol va Baxmal tumanlarida (26,0; 28,0; 32,0;48,0) yuqori ko'rsatkich aniqlandi.

O'smirlik yoshining kichik o'smirlik davri – 10 yoshdan 15 yoshgacha asosiy faoliyati shaxsning intim mulqoti, katta o'smirlik yoki ilk o'spirinlik davri – 15 yoshdan 16 yoshgacha, asosiy faoliyati o'qish, kasb tanlash o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi psixologik, fiziologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, bu davrda o'smir hayotida, psixikasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Uning o'ziga va atrofida bo'lgan munosabati boshqacha xarakter kasb etadi, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini baholashi, qadriyatlar tizimi o'zgaradi, o'z «men»ining ahamiyati ortadi. Demak, Sh.Rashidov, G'allaorol va Baxmal tumanlari va Jizzax shahri ta'lim muassasalari o'quvchilar jamoasidagi o'zaro munosabatlarning salbiy xususiyatlari o'smirlar jamoasida o'z o'rnini topa bilmaslik, kamsitilishi, jamoadagi o'z o'rnining yo'qolishi, o'smirning o'z «men»i inkor qilinishi o'smirlarda suitsidal xulq xavfining oshishiga ta'sir qilishi mumkinligi tadqiqot natijalarida o'z aksini topgan.

O'smirlardagi suitsidal xulq xavfini yuzaga chiqishida «passivlik, jur'atsizlik, tobelik» xususiyatlarining ta'siri aniqlandi, bu xususiyatlar o'smirlardagi hayotga, atrof muhitga va insonlarga bo'lgan munosabatlarining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkinligi tadqiqot natijalari asosida o'rganildi.

O'smirlardagi suitsidal xulq xavfi namoyon bo'lishiga o'ziga past baho berish, pubertat davrining og'ir kechishi, alkogol va narkotik moddalar iste'mol qilish holatlari ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Suitsidal xulq ularda g'ayritabiiylik, voqea-hodisalarga real baho bera olmaslik, o'zidan qoniqmaslik holatlari asosida yuzaga chiqishi aniqlandi.

Maktab psixologlari va ijtimoiy psixologlarga o'smirlardagi suitsidal xulq xavfining shakllanishini oldini

Adabiyotlar

1. Гилинский Я.И. Самоубийство как социальное явление. Проблемы борьбы с девиантным поведением. – М.: 1989. –С.114.
2. Дюркгейм Э. Самоубийство. СПб.: «Союз», 1998. –С.496.
3. Ефремов В.С. Основы суицидологии. СПб., 2004. –С.479.

REZYUME. Maqolada demografik va gender jihatdan suitsidal xulq xavfini yuzaga kelishi masalalari yoritilib, ulardagi suitsidal xulq xavfi namoyon bo'lishiga o'ziga past baho berish, alkogol va narkotik moddalar iste'mol qilish holatlari ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Suitsidal xulq ularda g'ayritabiiylik, voqea-hodisalarga real baho bera olmaslik, o'zidan qoniqmaslik holatlari asosida yuzaga chiqishi aniqlanganligi haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье освещены вопросы риска суицидального поведения с учетом демографических и гендерных особенностей, а низкая самооценка, употребление алкоголя и наркотиков также могут оказывать влияние на риск суицидального поведения у них. Установлено, что суицидальное поведение у них возникает на основе ненормальности, неспособности реально оценивать события, недовольства собой.

SUMMARY. The article highlights the risk of suicidal behavior taking into account demographic and gender characteristics, and low self-esteem, alcohol and drug use can also affect the risk of suicidal behavior in them. It has been established that their suicidal behavior arises on the basis of abnormality, the inability to realistically evaluate events, and dissatisfaction with oneself.

MILLATLARARO OILALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TIPOLOGIYASI

M.O.Roziqova – assistent o'qituvchi

Nukus innovatsion instituti

Tayanch so'zlar: oila, nikoh, bag'rikenglik, millat, millatlararo, baynalminal, biethnik oilalar, urf-odat.

Ключевые слова: семья, брак, толерантность, нация, межнациональный, интернациональный, биэтнические семьи, традиция.

Key words: family, marriage, tolerance, nation, international, bi-ethnic families, tradition.

Oila bu jamiyatning bir bo'g'ini bo'lib uning mustahkamligi, tinchligi o'z navbatida jamiyatning tinchligiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Oila muqaddas makon deyilishiga sabablardan biri unda kelajak va hayotimizning davomiyligini ta'minlovchi shaxslar yetishtiriladi. Shuning uchun ham oila, uning jabhalarini o'rganib chiqish fanlar oldida turgan eng muhim masalalardan biridir.

Hozirgi zamon oilalarining qanday turlarga ega ekanligi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish, oilaviy hayotda ro'y berishi

olish borasida quyidagi holatlarga e'tibor qaratishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim:

- «Oila» ilmiy-amaliy markazi, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari xodimlari, pedagog va tarbiyachilar, ota-onalar bilan o'smirlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablar va ushbu holatlarning oldini olishning pedagogik-psixologik masalalari bo'yicha o'quv kurslari, seminar-treninglar tashkil etish, ushbu o'quv kurslariga notinch, noto'liq oila vakillarining faol ishtirokini ta'minlash;

- o'smirlar o'rtasida suitsidal harakatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha psixoprofilaktik tadbirlarni amalga oshirishda milliy odatlarimiz, an'analarimiz, qadriyatlarimizdan keng foydalanish;

- ommaviy axborot vositalari, internet saytlari orqali sog'lom turmush tarzi, o'zaro hurmat, tushunish, hamdardlik ruhini shakllantiruvchi, o'smirlar ruhiyatiga xos eshittirishlar, munozaralar, filmlar namoyishlarini tashkil etish;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, har bir yosh davriga xos bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mazmunli tashkil etish;

- oila, mahalla va maktab hamkorligini yanada mazmunli rivojlantirish;

- mahalla bilan hamkorlikda oiladagi turmush tarzi bilan muntazam tanishib, ijtimoiy ta'sir ko'rsatib borish;

- mahallada oila pasportini tashkil etish va shu pasport orqali har bir oilaning ijtimoiy psixologik turmush tarziga baho berib borish;

- mahalla tomonidan oilaviy pasport orqali oilalarni tabaqalashtirish, ya'ni mahalla bilan hamkorlikda oilaning har bir a'zosini o'rganib borish;

- hududlarda psixologik markazlarni tashkil qilib, aholiga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatib borish;

- maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim maktab psixologlari bilan hamkorlikda oiladagi iqlimni mukammal o'rganib, mahalla ko'magida ijtimoiy psixologik ko'mak berib borish.

mumkin bo'lgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi [2:296].

Oilaning ko'plab turlari mavjud. Bularga misol tariqasida to'liqligiga ko'ra oila turlari, bo'g'inlar soniga ko'ra, bolalar soniga ko'ra oilalar turlari kabi ko'plab oila turlari farqlanadi. Turmush qurgan yigit va qizning, ya'ni er-xotinning millatiga ko'ra esa oilalar: bir millatli hamda baynalminal oila turlariga bo'linadi.

Aynan mana shu turdagi oilalar, ya'ni millatlararo nikohlar qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, hozirgi kun-